

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAJONOV XUMOYUN XOMIDJON O‘G‘LI

**TURKIYA RESPUBLIKASI TARIXSHUNOSLIGIDA AMIR TEMUR
HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI
(1923–2023-YILLAR)**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) disseratation

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Mamajonov Xumoyun Xomidjon o‘g‘li

Turkiya Respublikasi tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining tadqiq etilishi (1923–2023-yillar).....3

Mamazhonov Khumoyun Khomidjon ugli

Study of the life and statehood activity of Amir Temur in the historiography of the Republic of Turkey (1923–2023).....25

Мамажонов Хумоюн Хомиджон угли

Исследование жизни и государственной деятельности Амира Темура в историографии Турецкой Республики (1923–2023 годы).....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....52

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAJONOV XUMOYUN XOMIDJON O‘G‘LI

**TURKIYA RESPUBLIKASI TARIXSHUNOSLIGIDA AMIR TEMUR
HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI
(1923–2023-YILLAR)**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Tar2272 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fdu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharafiddinov Abdugaffar
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ensar Majit
tarix fanlari doktori, dotsent

Ulashova Sevinch Ulash qizi
tarix fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Temuriylar tarixi davlat muzeyi

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil "28" 08 soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, Farg'ona davlat universiteti, Tarix fakulteti, 2-qavat, majlislar zali. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz. Farg'ona davlat universiteti).


Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (802 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. ARM binosi). (Tel.: (99873) 224-44-94).


Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "15" 08 kuni tarqatildi.

(2026-yil "15" 08 dagi 23 - raqamli reyestr bayonnomasi)




B.A.Usmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor


A.B.Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, t.f.d.


M.G.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda sodir bo'layotgan globallashuv tendensiyalari tobora keng makonlarni qamrab olayotgan bir vaziyatda Yevropa va Osiyo mintaqalaridagi integratsion jarayonlarning chuqurlashishiga imkon yaratgan Amir Temur hayoti, davlatchilik faoliyati hamda tarixiy merosini ilmiy jihatdan chuqur va kompleks tarzda o'rganish zarurati ortib bormoqda. Temuriylar davrida yuz bergan integratsion jarayonlar o'sha davr geopolitikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bugungi globallashuv davrida mazkur tarixiy tajribani o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahondagi ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari hamda Turkiyadagi akademik muassasalarda Amir Temur shaxsi va uning davlatchilik faoliyati chuqur o'rganilmoqda¹. Xususan, turk olimlari tomonidan Amir Temur davrining turli yo'nalishlariga oid izlanishlar olib borilgan bo'lib, bu ilmiy faoliyat hozirgi kunda ham izchil davom ettirilmoqda. Shu bilan birga, dunyoning turli ilmiy markazlarida turkiyalik tadqiqotchilarning Amir Temur hayoti va siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy asarlari tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda va ularning tahlili asosida yangi ilmiy yondashuvlar shakllanmoqda. Biroq hozirga qadar Turkiyada yaratilgan temuriylar davriga oid ilmiy izlanishlar tarixshunoslik nuqtai nazaridan kompleks tadqiq etilmagan. Shu sababli Amir Temur shaxsi va uning davlatchilik siyosatining Turkiya Respublikasi tarixshunosligida qanday konseptual asoslarda yoritilganini tahlil etish, temurshunoslikning jahon ilmiy maydonidagi taraqqiyot yo'nalishlarini aniqlashda muhim nazariy ahamiyatga ega.

Yurtimiz dunyo sivilizatsiyasining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizni yetishtirib bergan. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Milliy ruh – bu yengilmas kuch. Milliy ruh kuchli bo'lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo'ladi. Kelajakda harbiy bo'lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini qayerdan oladi? Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi"². Turkiya tarixshunosligida Amir Temur tarixiga oid tadqiqotlarni bevosita temuriylar davri manbalari bilan qiyosiy tahlil qilish bugungi tarixshunoslik oldidagi dolzarb masalalardan biridir. Bu nafaqat Amir Temur shaxsini chuqurroq anglashga xizmat qiladi, balki Temuriylar merosining global kontekstdagi o'rnini belgilashda ham muhim ilmiy asos yaratadi. Shu nuqtai nazardan, Turkiyada temurshunoslik yo'nalishining shakllanish bosqichlari hamda turk tarixchilarning Amir Temur haqidagi qarashlari haqida ilmiy tahlil olib borish muhim vazifadir. Biroq hozirgi kungacha mazkur masalaning to'liq o'rganilmaganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

¹ Turk tarix jamiyati (Türk Tarih Kurumu): ttk.gov.tr, Islom tadqiqotlari markazi (İSAM (İslam Araştırmaları Merkezi)): isam.org.tr, Turkiya fanlar akademiyasi (TÜBA (Türkiye Bilimler Akademisi)): tuba.gov.tr, TÜBİTAK | Turkiya ilmiy va texnologik tadqiqotlar kengashi (TÜBİTAK | Türkiye Bilimsel ve Teknolojik Araştırma Kurumu): tubitak.gov.tr, Kolumbiya | Harriman instituti Rossiya, Yevrosiyo va Sharqiy Yevropa tadqiqotlari (Columbia | Harriman Institute Russian, Eurasian, and East European Studies): harriman.columbia.edu.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 14-yanvardagi harbiy xizmatchilar bilan uchrashuvida so'zlagan nutqi // <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/217>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son farmonidagi 71- va 77-maqsadlarni, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6097-son farmon, 2022-yil 10-fevraldagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-126-son hamda 2022-yil 29-iyuldagi “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-338-son qarorlarida, shuningdek, ushbu sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish, ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Amir Temur shaxsi va davlatchilik faoliyati tarixini 1923–2023-yillarda o‘rgangan turkiyalik tadqiqotchilarning asarlari jahon tarixshunosligida turli ilmiy nuqtai nazarlardan tahlil etilgan. Ular hududiy va davriy tamoyillar asosida uch guruhga ajratilgan holda tadqiq etildi. Jumladan, birinchi guruhni G‘arbiy Yevropa va AQSHda yaratilgan tadqiqotlar, ikkinchi guruhni Turkiyaga qo‘shni bo‘lgan mintaqalarda yozilgan asarlar, uchinchi guruhni mustaqillik yillarida mamlakatimizda yaratilgan tadqiqotlar tashkil etadi.

Tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1923–2023-yillarda Turkiya Respublikasi tarixshunosligida Amir Temur shaxsi va davlatchilik faoliyatining o‘rganilishi bo‘yicha alohida tadqiqot olib borilmagan. Bu esa mazkur masalani o‘rganish ilmiy-nazariy jihatdan ahamiyatga molik vazifa ekanligidan dalolat beradi (masalaning tarixshunosligi I bobning birinchi paragrafida batafsil yoritilgan).

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni asosida tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1923–2023-yillarda Turkiya Respublikasida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o‘rganilishini tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1923–2023-yillarda Turkiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o‘rganilishiga sabab bo‘lgan omillar hamda rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil etish;

Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini tadqiq etgan turkiyalik tadqiqotchilarning temurshunoslikning taraqqiy etishidagi o‘rnini ko‘rsatib berish;

1923–1991-yillarda Turkiyada temurshunoslikning vujudga kelishini tadqiq etish;

Mustafo Kamol Otaturkning Amir Temur shaxsiga munosabati hamda Amir Temurning Turkiya Respublikasining dastlabki yillaridagi darsliklardan o‘rin olishi masalasini tahlil qilish;

1991–2000-yillarda turkiyalik tadqiqotchilarning asarlarida Amir Temur tarixi yoritilishini tahlil etish;

2001–2023-yillarda Turkiyada yaratilgan tadqiqotlarda Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining o‘rganilishi masalalarini yoritish;

Tadqiqot natijalari asosida yakuniy xulosalar chiqarish hamda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida 1923–2023-yillarda Turkiya Respublikasida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining tadqiq etilishi belgilab olingan.

Tadqiqotning predmetini 1923–2023-yillarda Turkiya Respublikasida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini tadqiq etishga bag‘ishlangan turkiyalik tadqiqotchilarning asarlari hamda tadqiqotlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida obyektivlik, xolislik, izchillik tamoyillari, qiyosiy-tarixiy tahlil, mazmuniy tahlil, tizimlashtirish, muammoviy-xronologik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Turkiya Respublikasida (1923–2023-yillar) temurshunoslik uch bosqichda rivojlanganligi hamda uning birinchi bosqichi (1923-yildan XX asrning 70-yillariga qadar) milliy davlat qurish maqsadida vujudga kelgan turkshunoslik tadqiqotlari zahirida shakllanganligi, ikkinchi bosqich (XX asrning 70-yillaridan 1991-yilga qadar) Turkiyada tarix fanining metodologik jihatdan taraqqiy etishi ta’sirida Amir Temur tarixiga ilmiy va obyektiv yondashuv ortganligi, uchinchi bosqich (1991-yildan 2023-yilga qadar) O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o‘zaro aloqalarning rivojlanishi natijasida temurshunoslik tadqiqotlarining son va sifat jihatidan yanada o‘sganligi hamda turk temurshunoslari guruhining shakllanganligi bilan izohlanishi dalillangan;

Mustafo Kamol Otaturkning Tug‘luq Temur Movarounnahrda harbiy harakat yo‘nalishini Amir Temur bilan maslahat qilganligi to‘g‘risidagi noto‘g‘ri qarashlari “Temur tuzuklari”ni fransuz sharqshunosi Lui-Matie Langle tomonidan amalga oshirilgan fransuzcha tarjimasiga tayanishi natijasida kelib chiqqanligi asoslangan;

Ismoil Aka Turkiyada Amir Temurni faqatgina sarkarda emas, balki davlat arbobi sifatidagi faoliyatini tahlil etuvchi tadqiqotlarni boshlab bergan, temurshunoslik ilmiy maktabini yaratgan tadqiqotchi ekanligi isbotlangan;

Omer Hallis Biyiktay Amir Temur va Sulton Boyazid o‘rtasidagi Anqara jangi Chubuq mavzesida bo‘lib o‘tganligi to‘g‘risidagi fikrlarni ilgari surgan ilk tadqiqotchi ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston va Turkiya kutubxonalari hamda ilmiy-tadqiqot bazalarida saqlanayotgan Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga oid,

1923–2023-yillarda turkiyalik tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan 40 dan ortiq asar aniqlanib, tahlilga tortildi.

Turk tarixshunosligida Sulton Boyazidning o‘g‘li shahzoda Ertug‘rul Amir Temur tomonidan o‘ldirilganligi haqidagi noto‘g‘ri qarashlar Laonikos Xolkokondilisning “Turklar tarixi” asaridagi xatoliklar natijasida kelib chiqqanligi asoslandi.

Tadqiqot mavzusi uchun muhim hisoblangan Faxriddin Masihiy al-Fushanjiyning “Ibretu’n-nazirin” asaridan mamlakatimiz tarixshunosligida ilk marotaba keng tarzda foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mamlakatimiz tarixini o‘rganishdagi yangi yutuqlar, samarali nazariy-metodologik usullarga tayanilganligi, Turkiyaning “Oliy ta’lim kengashi, nashr va hujjatlashtirish boshqarmasi milliy dissertatsiyalar markazi” bazasidagi turkiyalik tadqiqotchilar asarlaridan foydalanilganligi, tadqiqot mavzusi bo‘yicha natijalar respublika va xorijiy ilmiy nashrlarda hamda konferensiyalarda muhokama qilinganligi, tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Amir Temurning hayoti va davlatchilik faoliyatining Turkiya Respublikasida yaratilgan tadqiqotlarda qanday yoritilganiga e’tibor qaratilgan. Ushbu muammoni chuqur tahlil qilish orqali turk tarixshunosligining temurshunoslik sohasiga qo‘shgan hissasi, uning xalqaro miqyosdagi ilmiy-nazariy ta’siri o‘rganildi. Turkiyada Amir Temur tarixiga oid tarixiy qarashlar nafaqat mahalliy tarixiy tafakkur doirasida, balki jahon temurshunosligining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Mazkur tadqiqot orqali Turkiya tarixshunosligida erishilgan ilmiy yutuqlar, mavjud kamchiliklar hamda bu kamchiliklarning sabablari tadqiq etildi. Bu esa, o‘z navbatida, jahon temurshunosligi rivoji uchun zarur bo‘lgan ilmiy asoslarni yanada mustahkamlash, tarixiy yondashuvlar xilma-xilligini tahlil qilish va yangi ilmiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, Amir Temurning hayoti, harbiy-siyosiy faoliyati hamda davlat boshqaruvi tizimini chuqur o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga yangi ma’lumotlar va nazariy asoslar qo‘shilishi bilan belgilanadi. Ushbu dissertatsiyadagi umumlalashtirilgan ilmiy xulosalar va tahliliy natijalardan O‘zbekiston tarixiga oid davlat dasturlarini amalga oshirishda, ayniqsa, maktab, litsey hamda oliy ta’lim muassasalari uchun darsliklar yaratishda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turkiya Respublikasi tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining tadqiq etilishi (1923–2023-yillar) bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalar, ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Turkiya Respublikasida (1923–2023-yillar) temurshunoslik uch bosqichda rivojlanganligi hamda uning birinchi bosqichi (1923-yildan XX asrning 70-yillariga qadar) milliy davlat qurish maqsadida vujudga kelgan turkshunoslik tadqiqotlari zahirida shakllanganligi, ikkinchi bosqich (XX asrning 70-yillaridan

1991-yilga qadar) Turkiyada tarix fanining metodologik jihatdan taraqqiy etishi ta'sirida Amir Temur tarixiga ilmiy va obyektiv yondashuv ortganligi, uchinchi bosqich (1991-yildan 2023-yilga qadar) O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o'zaro aloqalarning rivojlanishi natijasida temurshunoslik tadqiqotlarining son va sifat jihatidan yanada o'sganligi hamda turk temurshunoslari guruhining shakllanganligi bilan izohlanishi to'g'risidagi ma'lumotlardan Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ekspozitsiyasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 13-avgustdagi 04-05/3275-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu materiallar muzeyning "Tarix" bo'limi fondini boyitishga hamda muzeydagi Amir Temur tarixiga doir xorijiy adabiyotlar va xorijiy tilda chop etilgan manbalarni ilmiylik va ishonchlilik jihatdan takomillashtirishga xizmat qilgan;

Mustafo Kamol Otaturkning Tug'luq Temur Movarounnahrda harbiy harakat yo'nalishini Amir Temur bilan maslahat qilganligi to'g'risidagi noto'g'ri qarashlari "Temur tuzuklari"ni fransuz sharqshunosi Lui-Matie Langle tomonidan amalga oshirilgan fransuzcha tarjimasiga tayanishi natijasida kelib chiqqanligi asoslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi "Tarix" bo'limiga taqdim etilishi orqali muzey fondi yanada boyitildi (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 13-avgustdagi 04-05/3275-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu materiallar mahalliy va xorijiy sayyohlarning Amir Temur tarixining 1923–2023-yillarda Turkiyada o'rganilishi bo'yicha yangi ma'lumotlarga ega bo'lishiga imkon yaratdi;

Ismoil Aka Turkiyada Amir Temurni faqatgina sarkarda emas, balki davlat arbobi sifatidagi faoliyatini tahlil etuvchi tadqiqotlarni boshlab bergan, temurshunoslik ilmiy maktabini yaratgan tadqiqotchi ekanligi asoslanganligi kabi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" teleradiokanalining "Taqdimot" va "Tarix maydoni" ko'rsatuvi senariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 8-avgustdagi 01-33/607-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvning Amir Temur tarixini 1923–2023-yillarda Turkiya Respublikasida o'rganilishiga doir ma'lumotlar va ilmiy asoslangan fikrlarga boy bo'lishi ta'minlangan;

Omer Hallis Biyiktay Amir Temur va Sulton Boyazid o'rtasidagi Anqara jangi Chubuq mavzesida bo'lib o'tganligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari surgan ilk tadqiqotchi ekanligi dalillanganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Tarix maydoni" va "Taqdimot" ko'rsatuvlari ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" davlat muassasasining 2025-yil 8-avgustdagi 01-33/607-son ma'lumotnomasi). Foydalanilgan materiallar ko'rsatuvlarning qiziqarli va ilmiy-ommabop bo'lishi bilan bir qatorda, teletomoshabinlarga Amir Temur tarixi bo'yicha turkiyalik olimlarning qarashlarini yetkazib berilishiga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-nazariy konferensiya va seminarlarda, jumladan, 3 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari uchun asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 156 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Turkiyada temurshunoslikning rivojlanish bosqichlari hamda mavzuning tarixshunosligi”** deb nomlangan birinchi bobida Turkiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining tadqiq etilishiga ta'sir ko'rsatgan sabablar va omillar, rivojlanish bosqichlari hamda turkiyalik tadqiqotchilar tomonidan Amir Temur tarixiga bag'ishlab yaratilgan asarlar va bildirilgan fikr-mulohazalarning fanda o'rganilishi tahlil qilingan.

Birinchi bobning birinchi paragrafi **“Turkiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o'rganilishiga sabab bo'lgan omillar hamda rivojlanish bosqichlari”** deb nomlangan. Amir Temur shaxsi hamda davlatchilik faoliyatining Turkiya jumhuriyatida o'rganilishiga sabab bo'lgan dastlabki omil bu milliy o'zlikni o'zida mujassam etgan turkiy davlat qurishga intilish edi. Milliy o'zlik hamda turkiy qadriyatlar asosida yangi respublika qurish harakati o'z navbatida o'lkada turkshunoslikka oid tadqiqotlarning boshlanishiga hamda rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ya'ni Turkiya Respublikasining ilk yillarida temurshunoslik turkshunoslikka oid tadqiqotlar zaminida rivojlandi. Bu esa Turkiyada Amir Temur tarixiga doir dastlabki tadqiqotlarning paydo bo'lishiga zamin hozirladi. Reshat Ekram Kochuning “Temur va o'g'illari” nomli asari Turkiyada Amir Temur tarixiga bag'ishlangan birinchi tadqiqotdir³. Bu davrda, Temuriylar davlati 16 ta turkiy davlatlar qatorida Turkiyada maktab va litseyilar uchun chop etilgan darsliklardan ham o'rin olganligini ko'rish mumkin⁴. Turkiyada Amir Temur hamda Temuriylar davlati tarixi o'rganilishining rivojlanishiga sabab bo'lgan omillardan yana biri Sovet Rossiyasi hududidan bir qator turkiy ziyolilarning ko'chib kelishi bo'ldi. Bu esa Turkiya Respublikasining

³ Reshat Ekrem. Timur ve oğulları. – Istanbul: Muallim Ahmet Halit Kitaphanesi, 1933. – 64 s.

⁴ Mehmet Tevfik, Samih Rifat. Türk Tarihinin Ana Hatları. – İstanbul: Devlet Matbaası, 1930. – 622 s.

milliy o'zlikni targ'ib qilishi hamda turkiy asoslarga ko'ra yangi davlat qurish kabi sa'y-harakatlari bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. Albatta, turkiy ziyolilarning Turkiyaga ko'chib kelishi bu o'lka turkshunoslari hamda hukumat vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Turkiyada Amir Temur tarixi o'rganilishining ikkinchi bosqichi XX asrning 70-yillaridan 1991-yilga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. XX asrning 70-yillaridan so'ng Amir Temur tarixiga ilmiy va obyektiv yondashuv ortdi. Ya'ni, bu davrga Amir Temur shaxsiga turli mafkuraviy va milliy qarashlar ta'sirisiz ilmiy yondashuv boshlangan davr sifatida baho berish mumkin. XX asrning 60-yillaridan boshlab Turkiyada yuz bergan siyosiy jarayonlar nafaqat ijtimoiy hayotga, balki ilmiy sohalarga, xususan, tarixshunoslik ilmining rivojiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. XX asrning 70-yillarga kelib esa turkiyalik olimlar o'z ilmiy izlanishlarida milliylik bilan birga gumanizm, materializm kabi zamonaviy falsafiy yondashuvlarga ham murojaat qila boshladilar. Natijada tarixshunoslikda ko'p yo'nalishli, turli nazariy maktablarga asoslangan yondashuvlar shakllana boshladi. Bu o'zgarishlar temurshunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Turkiya temurshunosligida yangi davrni boshlab bergan shaxs sifatida Ismoil Akani e'tirof etish mumkin. U o'zining "Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati" nomli maqolasi bilan Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati tarixiga e'tibor qaratgan ilk turk olimi edi⁵. Bu davrda Ilter Fugen⁶, Ahmet Halil⁷, Yashar Yujel⁸, Ender Joshqun⁹, Saffet Bilhan¹⁰ va Mehmet Chayirdag¹¹ kabi turk olimlarining Amir Temur hamda temuriylar tarixining turli yo'nalishlari bo'yicha o'z ilmiy qarashlarini e'lon qilib borganligini ko'rish mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar Amir Temurning harbiy faoliyatidan biroz uzoqlashgan holda, uning fan, madaniyat, qurilish hamda san'at sohasidagi faoliyati tarixini yoritishga harakat qiladi. Xususan, Saffet Bilhan tomonidan yozilgan "Temuriylarda ilm-fan siyosati" nomli maqolani Turkiyada Amir Temur hamda uning vorislari tomonidan ilm-fan rivojiga qilgan xizmatlari tahlil etilgan dastlabki maqola deyish mumkin¹².

Turkiyada Amir Temur va Temuriylar davlati tarixiga doir tadqiqotlarning rivojlangan bosqichi – 1991-yildan 2023-yilga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda Sobiq Ittifoq parchalanganidan so'ng O'zbekiston mustaqil davlat sifatida vujudga keldi. Mustaqil O'zbekistonda Amir Temur tarixi qaytadan tadqiq etila boshlandi. O'z navbatida Turkiya davlati ham Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekistonga o'tmishi, tili, dini va kelib chiqishi bir ekanligini inobatga olgan holda asosiy hamkor davlat sifatida qaray boshladi. Bu hamkorlik madaniy

⁵ İsmail Aka. Emir Timur ve İmar Faaliyetleri // Türk Yurdu. – Ankara, 1968. Cilt VII, Sayı 1-2. – S. 27-28.

⁶ İlter Fügen. Doğu Anadolu'da Timur Devrinden Bir Yapı: Yelmaniye Medresesi // Anadolu. – Ankara, 1973. Sayı: 17. – S. 91-121.

⁷ Halil Ahmet. Sivas'ta Timurlenk Menkabeleri // Sivas Folkloru. – Sivas, 1974. Sayı: 19. S. 7-8.

⁸ Yaşar Yücel. Timur Tarihi Hakkında Araştırmalar // Belleten. – Ankara, 1976. Cilt: 40, Sayı: 158. – S. 249-286.

⁹ Ender Coşkun. Çelebi Mehmed'in Timur Han Adına Kestirdiği Sikkeler // Türk Nümizmatik Derneği Yayınları Bülteni. – İstanbul, 1977. Sayı: 2. – S. 17-18.

¹⁰ Saffet Bilhan. Timurlularda Bilim Politikası // Eğitim ve Bilim. – Ankara, 1983. 8 (46). – S. 18-23.

¹¹ Mehmet Çayırdağ. Timur-Yıldırım Bayezid'in Oğulları ve Bazı Beylikler Adına Basılan Akçelerden Oluşan Kayseri Müzesindeki Bir Define // Türk Dünyası Araştırmaları Dergisi. – İstanbul, 1986. Sayı: 45. – S. 57-84.

¹² Saffet Bilhan. Timurlularda Bilim Politikası // Eğitim ve Bilim. – Ankara, 1983. 8 (46). – S. 18-23.

yoʻnalishlarda ham vujudga keldi va bu aloqalarning tarixiy ramzi sifatida Amir Temur shaxsi tanlandi. Bundan tashqari, mustaqillikdan keyingi davrda turkiyalik ziyolilar Oʻzbekistondagi Amir Temur tarixiga doir birlamchi manbalardan foydalanish imkoniyatiga ega boʻldilar. Bu esa Turkiyada Amir Temur tarixiga doir tadqiqotlarning son va sifat jihatidan yanada yuqorilashiga hamda turk temurshunoslari guruhining vujudga kelishiga zamin hozirladi. Bu davrda “Temur tuzuklari”¹³, Ibn Arabshohning “Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur”¹⁴, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”¹⁵, Tojiddin Salmoniyning “Tarixnoma”¹⁶, Muhammad al-Husayniyning “Tarixi Kabir (Tarixi anbiyo va mulk)”, Fahriddin Masihiy al-Fushanjiyning “Ibretu’n-Nazrin”¹⁷, Tojiddin Hasanning “Jome ut-tavorixi Hasaniy”¹⁸, Muiniddin Natanziyning “Tarixi Muiniy”¹⁹ kabi koʻplab Temuriylar tarixiga doir manbalar turk tiliga tarjima qilindi. Turkiyada 1991-yildan keyingi davrda Amir Temur hamda Temuriylar davlati tarixi boʻyicha tadqiqot olib boruvchi olimlar guruhi yetishib chiqdi. Xususan, Hayrunissa Alan, Musa Shamil Yuksel, Halil Chetin, Ali Rizo Yagʻli, Ensar Majit kabi Amir Temurning harbiy yurishlaridan tortib, uning davlat boshqaruv tarixiga doir tadqiqotlar olib borgan hamda bu ishlarni hanuz davom ettirayotgan turk temurshunoslari paydo boʻldi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi **“Turkiya tarixchilarining Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga oid qarashlarini fanda oʻrganilishi”** deb nomlanib, turk tarixchilarining Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga oid qarashlarining fanda oʻrganilishiga bagʻishlangan boʻlib, tadqiqotlar davriy va geografik jihatdan 3 guruhga boʻlib tahlil etildi:

Turkiya Respublikasiga qoʻshni davlatlarda olib borilgan tadqiqotlar. Oʻz tadqiqotlarida turkiyalik ziyolilarning Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga doir asarlariga turlicha munosabat bildirgan olimlar yetarlicha topiladi. Gretsiya va Ozarbayjon olimlari tomonidan Amir Temur va Temuriylar davlati tarixiga bagʻishlab yozilgan asarlarda turk tadqiqotchilarining kitoblaridan keng foydalanganliklarini koʻrish mumkin. Turkiyalik fors tili mutaxassisi va tarjimoni Nejati Lugal tomonidan 1949-yilda Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari fors tilidan turk tiliga birinchi marotaba tarjima qilingan²⁰. Aynan shu tarjima nusxasidan foydalangan holda, 1992-yilda ozar sharqshunos olimi Ziyoy Bunyodov tomonidan “Zafarnoma” asari ozar tiliga tarjima qilingan²¹. Grek tarixchisi Nilgun

¹³ Sahibkiran Emir Timur Muhammed Tarağay Bahadıroğlu. Timur’un Günlüğü – Tüzükât-i Timur. Hazırlayan: Kutlukhan Şakirov, Adnan Aslan. – İstanbul: İnsan Yayınları, 2004. – 160 s.

¹⁴ Ibn Arabshah. Acaibu’l Makdur (Bozkırdan Gelen Bela). Çevirmen: Ahsen Batur. – İstanbul: Selenge Yayınları, 2012. – 480 s.

¹⁵ Şerefüddin Ali Yezdi. Emir Timur (Zafername). Çevirmen: Ahsen Batur. – İstanbul: Selenge Yayınları, 2013. – 544 s.

¹⁶ Tacü’s-Selmani. Tarihnâme. Çeviren: İsmail Aka. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 1999. – 177 s.

¹⁷ Mevlana Sefieddin Muhammed b. Mahmud b. Fahreddin Mesih el-Fuşenci. İbretü’n-Nâzirîn. Çevirmen: Ahmet Özturhan. – Efe Akademi Yayınları, 2021. – 146 s.

¹⁸ Tâcu’d-dîn Hasan b. Şihâb-ı Yezdî. Camiu’t Tevârih-i Hasenî Timur’dan Sonra Timurlular. Çevirmen: Fatih Bostancı. – Ankara: Divan Kitap, 2023. – 116 s.

¹⁹ Mu’ineddin Natanzî. Müntehebü’t-Tevârih-i Mu’inî (İskender Anonimi). Çeviren ve yayına hazırlayanlar: Ahmet Özturhan, Ahmet Korkmaz, Fatih Bostancı. – İstanbul: Bilgeoguz Yayınları, 2023. – 408 s.

²⁰ Nizamüddin Şami. Zafername. Çevirmen: Necati Lugal. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1987. – 404 s.

²¹ Nizamüddin Sami. Zâfername. Türk dilinden tercüme ve qeydlar Z.M. Bünyadovundur. – Bakı: Elm, 1992. – 40 s.

Elam o'zining "1391-1421-yillarda Vizantiya va Usmoniylar o'rtasidagi aloqalar" nomli doktorlik dissertatsiyasida Amir Temur shaxsining ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga ta'sirini tahlil qilgan²². Nilgun Elam ushbu dissertatsiyasini tayyorlashda turk tilida chop etilgan usmoniy manbalaridan ham foydalanganligini ko'rish mumkin. Nilgun Elam o'z ishida Amir Temur faoliyati tarixiga g'arb tarixchilarining asarlari hamda usmoniy manbalari (turk tilida nashr etilgan nusxasi) asosida to'xtalib o'tadi. Xususan, muallif Oshiqposhshozodaning "Usmoniylar tarixi", "Tavorixi Ali Usmon" Neshrining "Jahonnoma" asarlariga tayangan holda, Germiyon, Monteshe, Aydin, Kastamonu va Erzinjon amirlari Amir Temur huzuriga borganligini hamda uni Sulton Boyazidga qarshi yurishga da'vat etganligini keltirib o'tadi.

G'arbiy Yevropa davlatlari va AQSH tarixshunosligidagi tadqiqotlar. XX asrning 80-yillaridan boshlab G'arbiy Yevropa va AQSH tarixshunosligida turk tadqiqotchilarining asarlaridan foydalanish o'sganligini ko'rish mumkin. Michele Bernardini,²³ Klaudio Lo Jakono²⁴, Ilker Evrim Binbash²⁵, Beatris Forbes Manz²⁶ kabi olimlar Amir Temurning Yaqin Sharq va Onado'li mintaqasida olib borgan harbiy harakatlarini yoritishda turk tarixchilarining izlanishlariga tayanganlar.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar. 1991-yildan keyingi davrda yurtimizda turk tadqiqotchilari tomonidan Amir Temur va Temuriylar davlati tarixi bo'yicha yaratilgan tadqiqotlarni o'rganish hamda ilmiy jamoatchilik e'tiboriga taqdim etish uchun tarjima qilish harakatlari ham boshlab yuborildi. 1996-yilda Turkiyadagi temurshunoslik maktabi asoschisi Ismoil Akaning Amir Temur shaxsi va uning davlatchilik faoliyatiga bag'ishlab yozilgan asari "Buyuk Temur davlati" nomi bilan taniqli adib Tohir Qahhor tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinadi²⁷. 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlab chop etilgan "Amir Temur jahon tarixida"²⁸ va Temuriylar tarixi davlat muzeyi tomonidan chop etilgan "Amir Temur va temuriylar davri renessansi xorijiy tadqiqotlarda"²⁹ asarlarida hamda Ulug'bek Abdullayev³⁰, B.Usmonov³¹ o'z tadqiqotlarida turk olimlarning asarlariga keng o'rin berganligini ko'rish mumkin.

²² Nilgün Elâm. ΣΧΕΣΕΙΣ BYZANTIOY KAI ΟΘΩΜΑΝΩΝ ΚΑΤΑ ΤΑ ΕΤΗ 1391-1421. Διδακτορική Διατριβή Θεσσαλονίκη, 2010. – 261 σ. (Nilgun Elam. 1391-1421 yillarda Vizantiya va Usmonli munosabatlari. – doktorlik dissertatsiyasi Saloniki, 2010. – 261 b.)

²³ Michele Bernardini. Tamerlano Il conquistatore delle steppe che assogetto l'Asia dando vita a una nuova Civiltà. Roma: Salerno Editrice, 2022. – 566 p.

²⁴ Michele Bernardini. Tamerlano Il conquistatore delle steppe che assogetto l'Asia dando vita a una nuova Civiltà. Roma: Salerno Editrice, 2022. – P. 259-297.

²⁵ Ilker Evrim Binbaş. Intellectual Networks in Timurid Iran: Sharaf al-Din 'Alı Yazdı and the Islamic Republic of Letters. – London: Cambridge University Press, 2016. – 366 p.

²⁶ Beatrice Manz Forbes. The rise and rule of Tamerlane. – Cambridge University Press, 1989. – 252 p.

²⁷ Исмоил Ака. Буюк Темур давлати (Т.Қаҳҳор таржимаси). – Тошкент: "Ўзгирис", 1996. – 160 б.

²⁸ Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир Ҳ.Қароматов. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи наشري – Тошкент: Шарқ, 2001. – 304 б.

²⁹ Амир Темур ва темурийлар даври реңессанси хорижий тадиқотларда/ Темурийлар тарихи давлат музейи. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 144 б.

³⁰ Абдуллаев У.О. Амир Темурнинг Яқин ва Ўрта Шарқдаги сиёсати. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009. – 168 б.

³¹ Усмонов Б. Фарғона водийси Амир Темур ва темурийлар даврида. – Фарғона: "Фарғона" нашриёти, 2019. – 288 б.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“1923–1991-yillarda Turkiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining yoritilishi”** deb nomlanadi. Mazkur bobning **“Mustafo Kamol Otaturkning Amir Temur shaxsiga munosabati hamda uning Turkiya darsliklariga kiritilishi”** deb nomlangan birinchi paragrafida Mustafo Kamol Otaturkning Amir Temur shaxsiga munosabati va buning Turkiyada Amir Temur va Temuriylar davlati tarixi o‘rganilishiga ta’siri hamda Amir Temurning Turkiya maktab va litsey darsliklariga kiritilishi masalasi tahlil etilgan.

Otaturk Turkiyada respublika boshqaruv tizimini o‘rnatgach, milliy davlat qurish jarayonida o‘zining yetakchilik faoliyati va hokimiyatini mustahkamlash hamda turkiy o‘zlikni keng yoyish uchun turklarning tarixidan hukmdor qidirdi. Har tomonlama muvaffaqiyatga erishish uchun Otaturk o‘zida Amir Temur bilan ba’zi umumiy xususiyatlarni ko‘rgan bo‘lishi mumkin. Amir Temur Otaturk izlagan hukmdor edi. Chunki o‘sha davrda yozilgan ba’zi asarlar bu qarashlarni tasdiqlaydi. Otaturkning Amir Temur haqida qay darajada bilim va tasavvurga ega bo‘lganligi Munir Hayri Egeli tomonidan yozilgan “Otaturkning noma’lum xotiralari” asarida³² ham o‘z ifodasini topgan. Otaturk Afg‘on harbiy vaziri Sulton Mahmudxonning Anqaraga tashrifi davomida uni Amir Temur hamda Sulton Boyazid o‘rtasida bo‘lgan jang maydoniga olib borib, sayohat qildiradi. Bu maydonni tanishtirar ekan, Otaturk Amir Temur qo‘shinining maxsus jangovar musiqasi borligi haqida ham ma’lumot beradi. Kitobdagi ma’lumotlarga ko‘ra, Otaturk qaytishda “Tog‘ boshini tuman qoplamish” marshini past ovozda kuylay boshlagan. Sulton Mahmud Otaturkdan ushbu qo‘shiqni Amir Temur qo‘shinida ijro etilgan yoki etilmaganligi haqida so‘raydi. Otaturk esa o‘zi juda yaxshi ko‘rgan “Tog‘ boshini tuman qoplamish” marshini kuylayotganligini aytadi³³. Otaturk bu javobi bilan aslida Amir Temur qo‘shini singari o‘zining ham madhiyasi borligini va shuning uchun ular umumiy o‘xshashliklarga ega ekanliklarini bildirishga harakat qiladi.

Mustafo Kamol Otaturk ham qadimgi turkiy hukmdorlar faoliyatiga bag‘ishlab qoralamalar yozib borgan. Garchi u tomonidan yozilgan fikrlar matbuot yuzini ko‘rmagan yoki adabiyot sifatida nashr etilmagan bo‘lsa-da, uning shaxsiy kundaliklarida aks etganini ko‘rish mumkin. 2008-yilda Turkiya Bosh shtabi Harbiy tarix va strategik tadqiqotlar boshqarmasi tomonidan Otaturkning o‘z kundaligida turkiylar tarixiga bag‘ishlab yozgan ma’lumotlari “Turk tarixidan matnlar”³⁴ nomi bilan nashr etiladi. Otaturk o‘z kundaligida yozgan qoralamalarda Amir Temurga ham keng o‘rin beradi.

Otaturk ta’siri ostida turk tarixshunosligi Amir Temurni yanada ijobiy qiyofada tasvirlay boshladi, uning qiyofasini Usmonli saltanatini mag‘lub etgan salbiy qahramondan madaniy yutuqlarni o‘zida mujassam etgan hurmatli hukmdorga aylantirdi. Bu o‘zgarish muhim edi, chunki ilgari Usmoniylar davrida yaratilgan asarlarda Amir Temur Usmoniylar imperiyasi bilan bo‘lgan ziddiyatlari

³² M.H.Egeli. Atatürk’ün Bilinmeyen Hatıraları. – İstanbul: Güven Kitabevi, 1954. – S. 25-26.

³³ M.H.Egeli. Atatürk’ün Bilinmeyen Hatıraları. – İstanbul: Güven Kitabevi, 1954. – S. 25-26.

³⁴ Türk tarihi yazıları. Hazırlayanlar Dr. Öğ. Alb. Ahmet Tetik, Arş. Uzm. Ayşe Seven, Arş. Uzm. Melike Gürler. – Ankara: Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, 2008. – 117 s.

hisobga olingan holda, ko‘pincha unchalik ijobiy bo‘lmagan qiyofada tasvirlangan. Biroq, Otaturkning umumiy turkiy o‘zlikni yaratishga qaratilgan harakatlari bunday tarixiy shaxslarni qayta baholashga yo‘l ochdi.

1930-yilda “Turk O‘chog‘i Turk Tarixi Tadqiqot Jamiyati” tashkil etildi va tarixshunoslik tadqiqotlari institutsional miqyos kasb eta boshladi. Keyinchalik bu tashkilot “Turk tarixi tadqiqot jamiyati” nomini oldi. Bu tashkilot litseylarda tarix fani bo‘yicha asosiy darslik sifatida foydalanilishi ko‘zda tutilgan “Turk tarixining asosiy yo‘nalishlari” nomli loyiha sifatida tayyorlangan adabiyotni 1930-yilda yakunladi. O‘n bir bobdan iborat bu asarda dunyo tarixining qadimgi davridan boshlab to jumhuriyat davrigacha bo‘lgan davrdagi turklar tarixi haqida so‘z yuritiladi³⁵. Bu asarda turklarning O‘rta Osiyoda sivilizatsiyaga asos solganliklari, iqlim o‘zgarishi hamda boshqa faktorlar natijasida dunyoning turli nuqtalariga ko‘chib o‘tishlari va o‘zlari bilan birga dunyoga sivilizatsiyalarini tarqatganlari qisqacha bayon qilinadi. 1931-yilda Milliy Maorif Vazirligi tomonidan “Turk tarixining asosiy yo‘nalishlari (Kirish qismi)” nomli kitob nashr etildi va maktablarga tarqatildi³⁶.

Bevosita Otaturk rahbarligidagi jamiyat tomonidan tayyorlangan “Turk tarixining asosiy yo‘nalishlari (Kirish qismi)” nomli kitobning 17 sahifasi Temuriylar davlati va sivilizatsiyasi tarixiga bag‘ishlangan. Bu asarda 26 sahifada Usmonli tarixi va atigi 4 sahifada Saljuqiylar tarixi o‘rin olgan. Yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mualliflar yaratilayotgan tadqiqotda Amir Temurga alohida o‘rin bergan. Albatta, Amir Temurga bunday o‘rin berilishida Otaturk hamda uning asrandi qizi, “Turk tarixi tezisi” ni yaratish g‘oyasi muallifi bo‘lgan Afet Inanning ta’siri juda katta edi. Asarning 10-paragrafi bevosita Amir Temur faoliyati tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu paragrafda Amir Temurning kelib chiqishi va oilasi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bu darslikda Amir Temurning turk ekanligiga ham alohida urg‘u beriladi.

Mazkur bobning **“1923–1991-yillarda Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o‘rganilishi”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida bu davr oralig‘ida turkiyalik tadqiqotchilar tomonidan Amir Temur tarixiga oid yaratilgan asarlar va ilmiy-tadqiqotlar tahlil etilgan.

Turkiya Respublikasida Amir Temur tarixiga doir birinchi ilmiy asar sifatida Omer Halis Biyiktayning “Temurning yetti yillik harbiy yurishida Anado‘liga safari va Anqara jangi”³⁷ asarini e’tirof etish lozim. Omer Halis Biyiktay harbiy bo‘lganligi bois,³⁸ yuqoridagi kitobini Amir Temurning harbiy faoliyati va jang taktikasi hamda boshqaruvi tarixiga doir qimmatli ma’lumotlarni beruvchi asarlardan biri deyish mumkin. Muallif Amir Temurning harbiy shaxsiyatiga baho berar ekan, uni dunyodagi oz sonli jahongirlar ichida ham ajralib turuvchi sarkarda sifatida e’tirof etadi. Xususan, o‘tmishning buyuk hukmdorlari bilan solishtirar ekan, Amir Temur Aleksandr Makedonskiy kabi taxt vorisi sifatida dunyoga

³⁵ Mehmet Tefvik, Samih Rifat. Türk Tarihinin Ana Hatları. – İstanbul: Devlet Matbaası, 1930. – 622 s.

³⁶ Türk Tarihi Tetkik Cemiyeti. Türk tarihinin ana hatları (methal kısmı). – İstanbul: Devlet Matbaası, 1931. – 87 s.

³⁷ Ömer Halis Bıyıktaş. Yedi Yıl Harbi İçinde Timur’un Anadolu Seferi ve Ankara Savaşı. – İstanbul: Askeri matba, 1934. – S. 4.

³⁸ https://en.wikipedia.org/wiki/%C3%96mer_Halis_B%C4%B1y%C4%B1ktay.

kelmaganligini, Napoleon kabi yagona xalq va millat sifatida shakllangan davlatning hamda tayyor tartibli qo'shinning boshiga kelmaganligini, aksincha, barcha muvaffaqiyatlarga yuksak zakovati hamda harbiy boshqaruvi natijasida erishganligini alohida ta'kidlab o'tadi³⁹. Turk tarixchisi Omer Halis Biyiktayning Amir Temur va Sulton Boyazid o'rtasida 1402-yilda yuz bergan mashhur Anqara jangining geografik joylashuvi masalasidagi fikrlari diqqatga sazovor. U turk tarixshunosligida birinchi bo'lib jang Chubuq mavzesida bo'lganligini Usmonli manbalari bilan bir qatorda nemis sayyohi Johann Schiltbergerning xotiralariga tayanib asoslagan. Biyiktay o'z tadqiqotida o'sha davr tarixchilarining keng tarqalgan fikrlaridan biri – jangning Bent darasida bo'lib o'tgani haqidagi qarashlarini rad etadi. U o'zining dalillarida jang davomida Sulton Boyazid qo'shini joylashgan hududda suv resurslari tanqis bo'lgani haqida turli tarixiy manbalarda uchraydigan ma'lumotlarga e'tibor qaratadi. Biroq, Bent darasi Mo'g'on va Amir ko'llariga juda yaqin joylashgani bois, bu hududda suv tanqisligi bo'lishi mantiqan mumkin emas, degan xulosaga keladi. Shuningdek, Biyiktay jangning Chubuq mavzesida bo'lganligi haqida bir qancha dalillarni keltiradi. Jumladan, u xalq orasida saqlanib qolgan og'zaki rivoyatlarga asoslanib, jangning Chitag'on, Menadir, Bahodir va Bo'g'rek kabi tepaliklar atrofida kechgani haqida ma'lumot beradi. Bu esa jang geografiyasining aynan shu hudud bilan bog'liqligini ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Biyiktay Amir Temurning harbiy amaldorlaridan biri bo'lgan Eson Bug'a nomi bilan bog'liq qishloq hamda Sulton Boyazidni asir olgan shaxs nomi bilan atalgan Mahmuto'g'lon qishlog'ining bugungi kunda ham Chubuq mavzesiga yaqin joylashganligi, Anqara jangining aynan ushbu hududda kechganini isbotlovchi muhim tarixiy-geografik dalil sifatida qayd etadi⁴⁰.

XX asrning 70-yillariga qadar Turkiyada temurshunoslik borasidagi tadqiqotlar asosan Amir Temurning harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi hamda Turkiya tarixiga bevosita aloqador bo'lgan Onado'li va Yaqin Sharq mintaqalariga qaratilgan harbiy harakatlari doirasida olib borilgan edi. Bu tadqiqotlarda Amir Temurning siyosiy va harbiy salohiyati, yurishlarining oqibatlari va ularning Turkiya tarixiga ta'siri ko'proq qalamga olinardi. Ismoil Aka esa bu doiraviy yondashuvdan chiqib, Amir Temurning boshqa faoliyat sohalariga, xususan, bunyodkorlik va me'morchilik tarixiga e'tibor qaratgan ilk turk olimlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. U o'zining "Amir Temur va bunyodkorlik faoliyati" nomli maqolasida Sohibqironning shaharsozlik, infratuzilma va ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasini tarixiy manbalar asosida yoritib bergan. Bu esa turk temurshunosligida Amir Temur shaxsiyatining faqat harbiy va siyosiy emas, balki madaniy-iqtisodiy qirralarini ham o'rganishga yo'l ochdi⁴¹. Bu davrda Ismoil Aka tomonidan Temuriylar davlati tarixining turli yo'nalishlarini qamrab olgan ko'plab

³⁹ Ömer Halis Biyiktay. Yedi Yıl Harbi İçinde Timur'un Anadolu Seferi ve Ankara Savaşı. – İstanbul: Askeri matba, 1934. – S. 4.

⁴⁰ Ömer Halis Biyiktay. Yedi Yıl Harbi İçinde Timur'un Anadolu Seferi ve Ankara Savaşı. – İstanbul: Askeri matba, 1934. – S. 70-74.

⁴¹ İsmail Aka. Emir Timur ve İmar Faaliyetleri // Türk Yurdu. – Ankara, 1968. Cilt VII, Sayı 1-2. – S. 27-28.

ilmiy maqolalar yaratilganligini ko‘rish mumkin⁴². Turkiyalik tadqiqotchi Nazmiya To‘g‘onning “Temur zamonida aristokrat turk ayoli” nomli maqolasini Turkiyada temuriy malikalar tarixiga bag‘ishlangan birinchi ilmiy tadqiqot sifatida e‘tirof etish lozim⁴³.

Turk tarixshunosligida Amir Temur tarixi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlardan biri Yashar Yujel hisoblanadi. Yashar Yujelni Turkiyada Amir Temur tarixi bo‘yicha birinchi monografiya yozgan shaxs deyish mumkin. Uning 1989-yilda “Amir Temurning Yaqin Sharq – Onado‘li safarlari va natijalari (1393-1402)” nomli monografiyasi nashr etiladi. Muallif ushbu asarida Amir Temurning Yaqin Sharq hamda Onado‘li mintaqasiga qaratilgan yetti yillik safari, bu safar vaqtida bu o‘lkalardagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni yoritishga harakat qiladi⁴⁴. Muallif asarining kirish qismida Amir Temur shaxsiga qisqa bir shaklda to‘xtalib o‘tadi. Amir Temur davlatiga ta’rif berar ekan, madaniy jihatdan turk-fors, huquqiy asos o‘laroq turk-mo‘g‘ul, siyosiy-diniy jihatdan esa islom-mo‘g‘ul an‘analarini o‘zida mujassam etgan imperatorlik bo‘lganligini qayd etib o‘tadi⁴⁵.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“1991–2023-yillarda Turkiyada temurshunoslikning taraqqiy etishi”** deb nomlangan. Mazkur bobning birinchi paragrafi **“1991–2000-yillarda Amir Temur tarixining o‘rganilishi”** deb nomlanib, 1991–2000-yillar oralig‘i Turkiya tarixshunosligida Amir Temur shaxsi va uning davlatchilik faoliyatiga nisbatan munosabatda muhim burilish davri bo‘lgan. Bu davr Turkiya siyosiy va madaniy hayotida yangi g‘oyalar hamda milliy o‘zlikni yangicha talqin etish istagi bilan xarakterlanadi. Aynan shu o‘zgarishlar fonida Amir Temur siymosi tarixiy-afsonaviy obrazdan haqiqiy tarixiy shaxs sifatida, chuqurroq va manbashunoslik asosida tahlil etila boshlagan.

Juneyt Kanat 1996-yilda “Mamluklar va Temuriylar munosabatlari (1382-1447)” nomli dissertatsiyasini tayyorlagan⁴⁶. Muallif o‘z tadqiqotida Amir Temur hamda Mamluklar o‘rtasidagi munosabatlar hamda ularning natijalari, ikki davlatdagi munosabatlar vujudga kelishidan avvalgi siyosiy vaziyatlarga ham qisqacha to‘xtalib o‘tadi. Muallif nafaqat Temuriylar davlatida, balki Mamluklar davlatida yaratilgan manbalarni ham tadqiqotiga jalb etganligi bois, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi qirralarini ochib bera olgan. Muallif Al-Maqriziy ma’lumotlariga tayangan holda, ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar 1385-yilda Amir Temurning Sulton Barquqqa elchi yuborishidan boshlanganligini

⁴² İsmail Aka. Timur’un Ölümünden Sonraki Hâkimiyet Mücadelelerine Kısa Bir Bakış // A.Ü.D.T.C.F. Cumhuriyetin 50. Yıl Dönümünü Anma Kitabı. – Ankara, 1974. – S. 383-390; Timur’un Ölümünden Sonra Güney İran’da Hâkimiyet Mücadeleleri // Atsız Armağanı. – İstanbul: Ötüken Yayınevi, 1976. – S. 3-15; Timur’un Ankara Savaşı (1402) Fetihnamesi // Türk Tarihi Belgeleri Dergisi. – Ankara, 1981. Sayı 15. – S. 1-23; Timur Ve Timurular Devleti (1370-1507) // Tarihte Türk Devletleri. – Ankara, 1987. Cilt II. – S. 553-558; Timurular Devleti // Doğuştan Günümüze Büyük İslam Tarihi. – İstanbul, 1988. Cilt II. – S. 181-300.

⁴³ Nazmiye Togan. Temur Zamanında Aristokrat Türk Kadını // İslam Tetkikleri Enstitüsü Dergisi. – İstanbul, 1973. Cilt V. – S. 135.

⁴⁴ Yaşar Yücel. Timur’un Ortadoğu – Anadolu Seferleri Ve Sonuçları (1393-1402). – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1989. – 152 s.

⁴⁵ Yaşar Yücel. Timur’un Ortadoğu – Anadolu Seferleri Ve Sonuçları (1393-1402). – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1989. – S. 2.

⁴⁶ Cüneyt Kanat. Memluk-Timurlu Münasebetleri 1382-1447. Doktora Tezi. – İzmir: Ege Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1996. – 283 s.

hamda yuqoridagi manbada elchilik tafsilotlari batafsil keltirib o'tilmaganligini yozadi⁴⁷. Shuningdek, Juneyt Kanat Suriya noibi tomonidan Amir Temurning josusi qo'lga tushirilganligini, bu josus so'roq davomida yana uch nafar sherigi mavjud ekanligini tan olganligini qayd etadi. Muallif bu ma'lumotlarga tayangan holda, Amir Temurning 1401-yilda Suriyani egallashini 14 yil avval reja qilinganligini aytib o'tadi⁴⁸. Bundan tashqari, muallif Ibn Qozi Shuhba ma'lumotlariga tayanib, josusning ismi Davlat Hoja ekanligini hamda bu josus Barquqqa Amir Temurning askariy quvvati haqida ma'lumot berib uning 140 ming kishilik qo'shini mavjudligi, bundan 20 ming jangchi yaroqliligi haqida yozadi. Muallif qo'shimcha qilib, Ibn al-Furotda yuqoridagi raqamlar 240 mingga 30 ming hajmida keltirib o'tilganligini qayd etadi⁴⁹. Juneyt Kanat Al-Maqriziy ma'lumotlariga tayanib, Amir Temur vafot etishidan oldin bir guruh kekxa yoshli insonlarni Makka shahriga elchi qilib yuborganligini va bu elchilar 1405-yil 26-iyunda Makka shahriga yetib kelganliklarini keltirib o'tgan. Muallif Makka amiri Sharif Hasan ularni qarshi olganligini, bu elchilar Amir Temurning Ka'baga kisva yuborish niyati bor ekanligi haqida ma'lum qilganliklarini qayd etadi. Ammo, muallif bunday tarixiy voqea Amir Temur tarixchilari tomonidan qayd etilmaganligi bois, bu ishni haqiqatdan biroz yiroq ekanligini yozadi⁵⁰.

Haqiqatan ham, Amir Temurning Ka'baga kisva yuborish maqsadi haqida Temuriylar davlatida yaratilgan manbalarda ma'lumot uchramaydi. Lekin, Shohruh Mirzo bu ishni qilishga harakat qiladi va Mamluklar bilan bu borada uzoq yillar muzokaralar ham olib borganligi ma'lum. Balki Shohruh Mirzoda otasining istaklari natijasida Ka'baga kisva yuborish g'oyasi tug'ilgan bo'lishi ehtimoli mavjud.

1991-yildan keyingi davrda Turkiyada Amir Temur faoliyati nafaqat tadqiqotchilar, balki harbiy soha vakillari tomonidan ham tadqiq etilganligini ko'rishimiz mumkin. 1995-yilda Turkiya Harbiy Vazirligi, Bosh shtab harbiy tarix va strategik tadqiqotlar boshqarmasi tomonidan "Anqara maydoni muhorabasi" nomli kitob nashr etilgan⁵¹. Mazkur kitob Anqara jangidan avval ikki davlatning tashqi siyosiy aloqalari bayoni bilan boshlanib, Amir Temurning shaxsiga ham qisqacha to'xtalib o'tar ekan, ota tomonidan avlodlari Chingizxon avlodlariga borib taqalishi haqida ma'lumot keltirilgan⁵². Shuningdek, mazkur kitob Anqara jangini faqatgina harbiy tomondan emas, balki mazkur jangga ta'sir ko'rsatgan siyosiy, geografik, ijtimoiy faktorlar ham tahlil etilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Xususan, Sulton Boyazid oz muddatda katta hududlarni zabt etgan bo'lsa-da, turli

⁴⁷ Cüneyt Kanat. Memluk-Timurlu Münasebetleri 1382-1447. Doktora Tezi. – İzmir: Ege Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1996. – S. 43.

⁴⁸ Cüneyt Kanat. Memluk-Timurlu Münasebetleri 1382-1447. Doktora Tezi. – İzmir: Ege Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1996. – S. 46.

⁴⁹ Cüneyt Kanat. Memluk-Timurlu Münasebetleri 1382-1447. Doktora Tezi. – İzmir: Ege Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1996. – S. 64.

⁵⁰ Cüneyt Kanat. Memluk-Timurlu Münasebetleri 1382-1447. Doktora Tezi. – İzmir: Ege Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1996. – S. 209.

⁵¹ Fethi Ünsal, İhsan Gürsoy. Ankara meydan muharebesi. – Ankara: Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, 1995. – 152 s.

⁵² Fethi Ünsal, İhsan Gürsoy. Ankara meydan muharebesi. – Ankara: Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, 1995. – 152 s.

xil madaniyat va jamiyatlarni o'zida mujassam etgan bu davlatda to'liq hamjihatlik hamda o'zaro integratsiyaning mavjud emasligi jang natijalariga ta'sir ko'rsatgan omillardan biri sifatida keltirib o'tilgan⁵³.

Bu davrda Amir Temur tarixi bo'yicha tadqiqot olib borgan izlanuvchilardan biri Kadriye Figen Vardardir. Kadriye Figen tomonidan "Temuriylar davri koshin san'atining davr va muhit ichida baholanishi" nomli doktorlik dissertatsiyasi tayyorlangan⁵⁴. Bu tadqiqotda Amir Temur shaxsi va davlatchilik faoliyati to'g'risida deyarli ma'lumot uchramaydi. Asosan, Amir Temur hamda uning vorislari hukmronlik qilgan hududlarda koshin san'atining rivojlanishi, jamoat binolarining bezatilishi hamda Usmoniylar qurilish-bezak san'ati bilan qiyosiy tahlil etilganligini ko'ramiz⁵⁵. Kadriye Figen o'z tadqiqotida qisqa shaklda Amir Temur davlatining siyosiy tarixiga ham to'xtalib o'tadi. Muallif Amir Temurning birinchi rafiqasi hamda Jahongir Mirzoning onasi sifatida Nermish Oqani ko'rsatadi. Lekin muallif bu fikrlarini hech qanday manbaviy asosga bog'lamaydi⁵⁶.

So'nggi bobning ikkinchi paragrafi "**2001–2023-yillarda temurshunoslik taraqqiyoti**" deb nomlangan. Bu davr Turkiyada Amir Temur va temuriylar davri tarixi yoritilishida rivojlanish bosqichi bo'ldi. Chunki bu davrda Amir Temur shaxsi va uning davlatchilik faoliyati tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar son va sifat jihatidan ancha o'sganligini ko'rish mumkin. 1991-yilga qadar bo'lgan davrdagi tadqiqotlarda asosan Amir Temurning harbiy yurishlari hamda Onado'li va Kichik Osiyo mintaqasiga safarlari tarixi turkiyalik temurshunoslarning tadqiqot obyekti bo'lgan bo'lsa, 2000-yildan keyingi davrda Sohibqiron faoliyatining turli yo'nalishlari hamda boshqaruvining o'ziga xos jihatlari turkiyalik tarixchilarning tadqiqotlarida o'z aksini topa boshladi.

2000-yildan keyingi davrda Turkiyada Amir Temur tarixi bo'yicha tadqiqotlar son jihatdan ko'pligi bois, tadqiqotlarni xususiyatidan kelib chiqqan holda turkumlashtirib o'rganish maqsadga muvofiq. 1) Amir Temur biografiyasiga oid tadqiqotlar, 2) Harbiy yurishlari va strategiyalariga doir tadqiqotlar, 3) Siyosat va davlat boshqaruvi masalalariga doir tadqiqotlar, 4) Amir Temur davrida madaniyat, san'at, ilm-fan va din bilan bog'liq tadqiqotlar, 5) Amir Temur va Sulton Boyazid munosabatlari tarixiga oid tadqiqotlar.

Bu davrda yaratilgan bir qator tadqiqotlarda Amir Temur shaxsiyati bo'yicha qisqacha yondashgan tadqiqotchilarni ko'rish mumkin. Hayrunissa Alan o'zining "Bo'zqirdan jannat bog'chasiga Temuriylar (1360-1506)" nomli asarida Amir Temurning kelib chiqishiga to'xtalar ekan, u Turklarning beyi, musulmonlarning amiri, mo'g'ullarning kuyovi Amir Temur Ko'ragon va Temur Bek edi, deya

⁵³ Fethi Ünsal, İhsan Gürsoy. Ankara meydan muharebesi. – Ankara: Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, 1995. – S. 19-20.

⁵⁴ Kadriye Figen Vardar. Timurlu Çini Sanatının Çağı ve Çevresi İçinde Değerlendirilmesi. Doktora Tezi. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1996. – 437 s.

⁵⁵ Kadriye Figen Vardar. Timurlu Çini Sanatının Çağı ve Çevresi İçinde Değerlendirilmesi. Doktora Tezi. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1996. – 437 s.

⁵⁶ Kadriye Figen Vardar. Timurlu Çini Sanatının Çağı ve Çevresi İçinde Değerlendirilmesi. Doktora Tezi. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1996. – S. 4-5.

ta'riflaydi⁵⁷. Bundan tashqari, Tarkan Suchikar⁵⁸, Izzatulloh Zaki⁵⁹, Harun Chetin⁶⁰, Halil Chetin⁶¹, Ahat Andijon⁶², Ahmad Shimshirgil⁶³ kabi turk tarixchilari Amir Temur va Temuriylar davlati tarixiga doir tadqiqotlarida Amir Temurning shaxsiyati hamda uning bolalik vaqtlariga qisqacha to'xtalib o'tishgan.

Vizantiya manbalari asosida Amir Temur shaxsiyati va faoliyatini tadqiq etgan olimlar orasida turk tarixchisi Mustafa Dashning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mustafa Dash Vizantiya tarixchilari va cherkov manbalari asosida Amir Temur shaxsining Vizantiya tarixshunosligida qanday tasavvur etilganini tahlil qiladi. Mustafa Dash Vizantiya tarixchilarining Amir Temur haqidagi qarashlari, unga berilgan siyosiy va madaniy tavsiflar hamda Anqara jangidan keyingi munosabatlarni chuqur o'rganadi⁶⁴.

Amir Temur harbiy faoliyati tarixi bo'yicha tadqiqot olib borgan turk tarixchilaridan biri Ensar Majitdir. U o'zining "Temuriylar davlatining askariy tashkiloti" nomli tadqiqotida Amir Temur va uning vorislari davridagi qo'shin tuzilishi, qurollanish, harbiy taktikalar hamda jangdan keyingi amaliyotlar tarixiga batafsil to'xtalib o'tadi⁶⁵.

Ahad Andijon Amir Temurning Hindistonga yurishi sabablarini tahlil qilar ekan, mazkur harbiy yurishning faqat diniy g'oya yoki siyosiy beqarorlik bilan izohlanishini yetarli emas deb hisoblaydi. Muallifning qayd etishicha, temuriylar davri tarixchilari Nizomiddin Shomiy hamda Sharafiddin Ali Yazdiy Hindiston yurishini kofirlar ustiga yurish tushunchasi bilan izohlashga harakat qilgan bo'lsalar-da, bu qarash Amir Temurning aynan Hindistonni nishon sifatida tanlashiga to'liq javob bermaydi. Ahad Andijonning fikricha, Hindistonga yurishning asosiy sabablaridan biri Pirmuhammad Jahongir boshchiligidagi qo'shinlarning Mo'ltan qamali vaqtida muvaffaqiyatsizlikka uchrashi bilan bog'liq edi. Muallifga ko'ra, shu sababli u avval rejalashtirilgan Xitoy yurishini vaqtincha to'xtatib, Hindistonga shaxsan yurishga qaror qilgan. Ahad Andijon ushbu masalaga doir hind va boshqa ko'plab tarixchilar ma'lumotlarini qiyosiy tahlil qilib, Amir Temurning Hindiston yurishi ko'proq temuriylar siyosiy mavqeyini saqlab qolish, harbiy nufuzni tiklash va Shimoliy Hindistonda nazoratni mustahkamlash maqsadlari bilan bog'liq bo'lganini ta'kidlaydi⁶⁶.

Turkiyadagi yirik temurshunos olimlardan biri Ali Rizo Yag'li "Temuriylar davlatida vazirlar va vazirlik tashkiloti" nomli tadqiqotida Temuriylar davlati boshqaruv faoliyati tarixiga batafsil to'xtalib o'tgan⁶⁷. Ali Rizo Yag'li

⁵⁷ Hayrunnisa Alan. Timurlular – Bozkırdan Cennet Bahçesine 1360-1506. – İstanbul: Ötüken Neşriyat, 2007. – S. 31.

⁵⁸ Tarkan Suçikar. Emir Timur Yıldırım Bayezid. – İstanbul: Kripto Basın Yayınları, 2016. – 319 s.

⁵⁹ İzzetulloh Zeki. Emir Timur dönemi bilginleri. – İstanbul: Çizgi kitabevi yayınları, 2021. – 127 s.

⁶⁰ Harun Çetin. Emir Timur ve İslam. – İstanbul: IQ Kültür Sanat Yayıncılık, 2017. – 160 s.

⁶¹ Halil Çetin. Ankara Savaşı ve Anadolu Seferi. – İstanbul: Yeditepe Yayınevi, 2012. – 240 s.

⁶² Ahat Andican. Emir Timur: Tarih, Siyaset, Miras. – İstanbul: Selenge Yayınları, 2019. – 930 s.

⁶³ Ahmet Şimşirgil. Otağ 2 – Emir Timur. – İstanbul: Timaş Yayınları, 2017. – 336 s.

⁶⁴ Mustafa Daş. Bizans Kaynaklarında Timur İmajı // Tarih İncelemeleri Dergisi. – İzmir, 2005. Sayı 2. S. 43-58.

⁶⁵ Ensar Macit. Timurlu Devletinin Askeri Teşkilatı. Yüksek Lisans Tezi. – Erzurum: Atatürk Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2012. – 195 s.

⁶⁶ Ahat Andican. Emir Timur: Tarih, Siyaset, Miras. – İstanbul: Selenge Yayınları, 2019. – S.204-206.

⁶⁷ Ali Rıza Yağlı. Timurlu Devletinde Vezirler ve Vezirlik Kurumu. Doktora Tezi. – Ankara: Ankara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2014. – 436 s.

tadqiqotining “Temuriylar davlati va uning tuzilmasi” deb nomlangan birinchi bobi Temuriylar davlatidagi harbiy va saroy lavozimlari, boshqaruv strukturasi hamda mintaqalardagi boshqaruv masalalari tarixiga bag‘ishlangan⁶⁸.

Bu davrda ko‘zga ko‘ringan temurshunos olimlardan yana biri Muso Shamil Yuksaldir. U o‘zining “Temuriylarda din va davlat munosabatlari” nomli tadqiqotida Temuriylar sulolasining siyosiy hokimiyati hamda islom dini asosidagi ijtimoiy nazorat mexanizmlari qanday uyg‘unlashganini chuqur tahlil qilinganligini ko‘rish mumkin⁶⁹. Muallif Amir Temurning diniy qarashlari otasining ta’siri va e’tibori ostida shakllanganligiga e’tibor qaratadi. Shuningdek, mazhab masalasida Amir Temurning sunniy ekanligini, ba’zi xorijlik olimlar uning shia mazhabida ekanligini qabrtoshida Hazrati Aliga bog‘langan nasabnomaga tayanib da’vo qilayotganliklarini, lekin uning butun faoliyatida sunniy ekanligini isbotlovchi ko‘plab dalillar mavjud ekanligini qayd etadi⁷⁰.

Izzatulloh Zaki o‘zining “Amir Temur davri olimlari” nomli asarida Amir Temurning ziyolilar bilan munosabatlari hamda Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti tarixiga to‘xtalib o‘tadi⁷¹. Izzatulloh Zakining mazkur asari olti bo‘limdan iborat bo‘lib, Amir Temurning olimlar, oriflar, tarixchilar, vazirlar, shoirlar, san’atkorlar va tabiblar bilan munosabatlari hamda ularga qaratgan e’tibori har bir bobda alohida tahlil etilganligini ko‘rish mumkin. Muallif Amir Temur qayerga harbiy safar qilsa, mintaqadagi olimlar bilan suhbat o‘tkazishni sevishini va ularni o‘z poytaxti Samarqandga da’vat etganligini yozadi. Zaki Amir Temur harbiy yurishlari chog‘ida ham ko‘plab ilm ahli unga hamrohlik qilganligini, Mavlono Abduljabbor shunday ulamolardan biri ekanligini hamda bu ulamo Amir Temurning O‘rta Sharq va Onado‘li mintaqalariga qilgan safarlarida imom, tarjimon sifatida faoliyat olib borganligini yozadi. Muallif uning Amir Temur saroyidagi o‘rnini Imomi A‘zamga qiyosan “Ikkinchi No‘mon” shaklida atalishi hamda Sohirqironning ilmiy munozaralarida hakam sifatida tanlanganidan ham bilish mumkinligini qayd etadi⁷².

Turk tadqiqotchisi Tarkan Suchikar Amir Temur va Yildirim Boyazid o‘rtasidagi murakkab diplomatik munosabatlarni turli manbalar asosida sinchiklab tahlil qiladi. Muallif ikki buyuk hukmdorning o‘zaro yozishmalari, elchilar orqali olib borilgan muloqotlari, siyosiy nutqlari va bu harakatlarning zamiridagi siyosiy maqsadlarni manbashunoslik asosida ochib beradi. Muallif o‘z asarida Amir Temur va Boyazid o‘rtasidagi diplomatik tanglik bir tomonlama keskinlik emas, balki ikkala tomonning shaxsiy xarakteri, siyosiy mafkurasi va davr sharoiti bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Uning ta’kidlashicha, Yildirim Boyazid diplomatiya qoidalariga doimo rioya qilmagan, vaziyatga qarab o‘zining murosasiz, ba’zida esa haddan tashqari shaxsiy hissiyotga asoslangan tutumlarini namoyon qilgan. Bu hol, ayniqsa, Amir Temurning elchilariga javoban yuborilgan haqoratli va tahdidli maktublarda yaqqol ko‘rinadi. Suchikar Yildirimning elchilarni kamsitishi,

⁶⁸ Ali Rıza Yağlı. Timurlu Devletinde Vezirler ve Vezirlik Kurumu. Doktora Tezi. – Ankara: Ankara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2014. – S. 57-121.

⁶⁹ Musa Şamil Yüksel. Timurlularda Din-Devlet İlişkisi. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2009. – 252 s.

⁷⁰ Musa Şamil Yüksel. Timurlularda Din-Devlet İlişkisi. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2009. – S. 26-31.

⁷¹ İzzetulloh Zeki. Emir Timur dönemi bilginleri. – İstanbul: Çizgi kitabevi yayınları, 2021. – 127 s.

⁷² İzzetulloh Zeki. Emir Timur dönemi bilginleri. – İstanbul: Çizgi kitabevi yayınları, 2021. – S. 28-31.

sovg'alarni rad etishi, hattoki elchilarning soqollarini olish kabi tahqirli amallarni buyurishini o'zining mag'rurligi, siyosiy raqibni yengish istagi va kuchni namoyish qilish vositasi deb baholaydi⁷³.

XULOSA

Turkiya Respublikasi tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarni qiyosiy-tahliliy o'rganish natijasida mavzuning yoritilish xususiyatlari, asosiy ilmiy yondashuvlar va qarashlar aniqlanib, quyidagi ilmiy xulosalar chiqarildi:

1. 1923–2023-yillar oralig'ida Turkiyada Amir Temur tarixining o'rganilishi uch bosqichda rivojlandi. Birinchi bosqich 1923-yildan XX asrning 70-yillariga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda asosan Amir Temur shaxsi nisbatan milliy mafkuralar ta'siridan kelib chiqqan holda o'rganildi hamda tadqiq etildi. Chunki Turkiya bu davrda xalqaro va mintaqadagi siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda milliy davlat qurishga intildi. Natijada, mamlakatda turkshunoslik g'oyalari rivojlandi. Turkshunoslik hamda Mustafo Kamol Otaturkning davlatchilik qarashlari ta'sirida Amir Temur shaxsi turkiy xalqlarning hukmdori sifatida o'rganildi.

2. Ikkinchi bosqich XX asrning 70-yillaridan 1991-yilga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. XX asrning 60-yillaridan boshlab Turkiyada yuz bergan siyosiy jarayonlar nafaqat ijtimoiy hayotga, balki ilmiy sohalarga, xususan tarixshunoslik ilmining rivojiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. XX asrning 70-yillariga kelib esa turkiyalik olimlar o'z ilmiy izlanishlarida milliy g'oya bilan birga gumanizm, materializm kabi zamonaviy falsafiy yondashuvlarga ham murojaat qila boshladilar. Natijada tarixshunoslikda ko'p yo'nalishli, turli nazariy maktablarga asoslangan yondashuvlar shakllana boshladi. Bu o'zgarishlar, shubhasiz, temurshunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

3. Uchinchi bosqich (1991–2023-yillar) – O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o'zaro aloqalarning rivojlanishi natijasida temurshunoslik tadqiqotlarining son va sifat jihatidan yanada o'sganligi hamda turk temurshunoslari guruhining shakllanganligi bilan izohlanadi.

4. Turkiyada Amir Temur hayoti, harbiy-siyosiy faoliyati va davlat boshqaruvi tizimi tarixi bo'yicha yaratilgan asarlardan xorijlik olimlar tomonidan ma'lum darajada foydalanilgan bo'lsa-da, 1923–2023-yillarda Turkiya tarixshunosligida Amir Temur shaxsi va davlatchilik faoliyatining o'rganilishi bo'yicha muayyan bir tadqiqot olib borilmagan. Bu esa temurshunoslik sohasida Turkiya tarixshunosligining salohiyatini ilmiy asosda baholash, mazkur yo'nalishda yangi ilmiy izlanishlar olib borish, adabiyotlarni tizimli ravishda tahlil qilish va Amir Temur merosining Turkiya tarixiy tafakkuridagi o'rnini aniqroq belgilash zarurligini anglatadi.

⁷³ Tarkan Suçıkar. Emir Timur Yıldırım Bayezid XV-XVII. Yüzyıl Osmanlı Kroniklerinde Yıldırım Bayezid ve Timur Algısı. – Ankara: Panama Yayıncılık, 2018. – S. 172-177.

5. Mustafó Kamol Otaturkning Amir Temur shaxsiga nisbatan ijobiy munosabati Turkiya Respublikasida temurshunoslik yo‘nalishining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Otaturk davrida Amir Temur siymosining maktab va litsey darsliklarida turkiy xalqlarning buyuk davlat arbobi va tarixiy qahramoni sifatida talqin etilishi, uning turk jamiyatidagi mavqeini yanada mustahkamladi. Natijada Amir Temur yangi turk davlatining tarixiy xotirasi va milliy o‘zligini shakllantirishda muhim ramziy timsollardan biriga aylanishi bilan birga, uning hayoti va davlatchilik faoliyatiga doir ilmiy tadqiqotlar, asarlar va tarjimalarning ko‘payishiga ham zamin yaratdi.

6. Turkiya Respublikasi tarixshunosligida temurshunoslik yo‘nalishining shakllanishi va taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan muhim omillardan biri — Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid fors, arab va yunon tillaridagi birlamchi manbalarning, shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan zamonaviy ilmiy asarlarning turk tiliga tarjima qilinishi bo‘ldi. Mazkur tarjimalar turkiyalik tadqiqotchilarning mavzuga oid manbaviy va ilmiy adabiyotlar doirasini sezilarli darajada kengaytirib, Amir Temur shaxsi, uning davlatchilik faoliyati hamda Temuriylar davri siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarini qiyosiy va kompleks asosda o‘rganish imkoniyatini yaratdi.

7. Turkiya Respublikasi tarixshunosligida shahzoda Ertug‘rulning vafoti, Yildirim Boyazidning “temir qafas”ga solinishi hamda Anqara jangining aniq joylashuvi kabi bahsli masalalar yuzasidan turli qarashlarning shakllanishi, eng avvalo, tadqiqotchilarning turli davr va tillarda yaratilgan manbalarni qiyosiy-tanqidiy asosda o‘rganishi, ulardagi ma‘lumotlarning ishonchlilik darajasini turlicha baholashi hamda tarixiy voqelikni manbalar asosida qayta talqin qilishga intilishi bilan izohlanadi.

8. Amir Temur tarixi bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar an‘analarini shakllantirishda va ilmiy maktab yaratishda turkiyalik yetuk tarixchi olim, professor Ismoil Aka muhim o‘rin egallaydi. U Temurshunoslik sohasida nafaqat Amir Temurning harbiy faoliyatini, balki uning davlat siyosati, huquqiy islohotlari, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishdagi o‘rni, Temuriylar sulolasining siyosiy merosini ham ilmiy asosda tadqiq qilgan. Ismoil Akaning asarlari tarixiy manbalarni chuqur tahlil etishga tayanganligi, ko‘plab temurshunos olimlarni tarbiyalashga bevosita boshchilik qilganligi Turkiyada temurshunoslik maktabining shakllanishiga va ushbu sohaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanishiga xizmat qilganligini ko‘rsatadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari va ilmiy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirishni lozim topdik:

1. Turkiya Respublikasi tarixshunosligida Amir Temur va Temuriylar davlatini tadqiq etishga bag‘ishlangan asarlar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar va badiiy kitoblar bibliografiyasini yaratish;

2. O‘zbek va turk tarixchilarining birgalikdagi izlanishlarini muvofiqlashtiradigan, qo‘shma ilmiy loyihalar va konferensiyalarni tashkil etadigan maxsus raqamli temurshunoslik ilmiy platformasini tashkil etish;

3. 1923–2023-yillarda Turkiya Respublikasi tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o‘rganilishi mavzusida fundamental monografik tadqiqot yaratish;

4. Usmoniylar arxivi hamda To‘pqopi saroyi arxivida Temuriylar tarixiga doir saqlanayotgan manba va adabiyotlar katalogini yaratish.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL ON THE BASE
OF SCIENTIFIC COUNCIL ON THE ATTENDANCE OF
SCIENTIFIC DEGREES PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 UNDER
FERGHANA STATE UNIVERSITY**

FERGHANA STATE UNIVERSITY

MAMAZHONOV KHUMOYUN KHOMIDJON UGLI

**STUDY OF THE LIFE AND STATEHOOD ACTIVITY OF AMIR
TEMUR IN THE HISTORIOGRAPHY OF THE REPUBLIC OF TURKEY
(1923-2023)**

07.00.08 – Historiography, source study and methods of historical research

ABSTRACT
of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) on HISTORICAL SCIENCES

The theme of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered by the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2025.1.PhD/Tar2272

The dissertation has been completed at Ferghana State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) and on the information and educational portal "Ziyo.NET" (www.ziyo.net).

Scientific supervisor:

Sharafiddinov Abdugaffar
Candidate of historical sciences (PhD), docent

Official opponents:

Ensar Majit
Doctor of historical sciences, docent

Ulashova Sevinch Ulash kizi
Doctor of historical sciences, docent

Leading organization:

State Museum of the Temurids

The defense of the dissertation will be held on "28" "08" 2026 at 900 at the meeting of one-time Scientific Council on the base of the Scientific Council Number PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 on award of scientific degrees under the Ferghana State University (Address: 150100, Ferghana city, Murabbiylar street, Ferghana State University, Faculty of History, 2nd floor, meeting room. Tel. (99873) 244-44-02; fax: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz Ferghana State University).


Dissertation can be found in the informational-source center of the Ferghana State University (registration number _____. (Address: 150100, Ferghana city, Murabbiylar street, 19. The building of IRC). Tel. (99873) 244-44-94.


Abstract of dissertation is delivered "15" "08" 2026.

(Register of certificate of delivery № 23 of "15" "08" 2026).




B.A. Usmonov
Chairman of scientific Council on
awarding the scientific degrees, doctor of
historical sciences, professor


A.B. Musaev
Secretary of the scientific council on
awarding Scientific degrees, doctor of
philosophy (PhD) in historical sciences


M.G. Abdullaev
Chairman of scientific seminar under
Scientific Council on awarding the
scientific degrees, doctor of historical
sciences, professor

INTRODUCTION (Abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD))

The actuality and significance of the dissertation work. In a context where globalization trends occurring worldwide are increasingly encompassing broader regions, the need to scientifically and comprehensively study the life, statecraft activities, and historical legacy of Amir Temur who created opportunities for the deepening of integration processes in the European and Asian regions is steadily growing. The integration processes that took place during the Timurid era had a significant impact on the geopolitics of that period, and the study of this historical experience has gained particular relevance in today's era of globalization.

Today, the personality of Amir Temur and his state-building activities are being studied in depth in many research centres around the world as well as in academic institutions in Turkey¹. In particular, Turkish scholars have conducted research on various aspects of the Amir Temur period, and this scholarly activity continues consistently at present. At the same time, in various academic centres around the world, the scholarly works of Turkish researchers devoted to Amir Temur's life and political activity are attracting increasing attention, and new scholarly approaches are being formed on the basis of their analysis. However, to date, the scholarly studies produced in Turkey concerning the Timurid period have not been comprehensively examined from a historiographical perspective. Therefore, analysing the conceptual foundations on which the personality of Amir Temur and his state policy have been interpreted in the historiography of the Republic of Turkey is of significant theoretical importance in identifying the directions of development of Timurid studies in the global academic sphere.

Our country has produced great ancestors who made a substantial contribution to the development of world civilization. As President Sh.M.Mirziyoyev emphasized, "National spirit is an invincible force. If the national spirit is strong, willpower and combat potential will also be high. Where will our brave children, who dream of becoming soldiers in the future, draw their national spirit and sense of responsibility for the fate of the sacred Motherland from? They will draw it from the rich history of our Homeland and from the courage of our great ancestors such as Amir Temur."² A comparative analysis of studies on the history of Amir Temur in Turkish historiography directly with the sources of the Timurid period is one of the pressing issues facing contemporary historiography. This serves not only to gain a deeper understanding of the personality of Amir Temur, but also to create an important scholarly basis for determining the place of the Timurid legacy in the global context. From this point of view, conducting a scholarly analysis of the stages in the formation of the field of Timurid studies in Turkey, as well as the views of Turkish historians on Amir Temur, is an important academic task.

¹ Turkish historical society (Türk Tarih Kurumu): ttk.gov.tr, Centre for Islamic studies (İSAM (İslam Araştırmaları Merkezi)): isam.org.tr, Turkish academy of sciences (TÜBA (Türkiye Bilimler Akademisi)): tuba.gov.tr, The Scientific and Technological Research Council of Türkiye (TÜBİTAK) (TÜBİTAK | Türkiye Bilimsel ve Teknolojik Araştırma Kurumu): tubitak.gov.tr, Columbia | Harriman institute Russian, Eurasian, and East European Studies): harriman.columbia.edu.

² The speech delivered by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, during his meeting with military servicemen on January 14, 2019 // <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/217>.

However, the fact that this issue has not yet been fully studied determines the relevance of the topic.

This dissertation will, to a certain extent, serve the implementation of the tasks set out in Goals 71 and 77 of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-60 dated 28 January 2022, “On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022–2026”, Decree No. PD-6097 dated 29 October 2020, “On the approval of the Concept of Science Development until 2030”, Resolution No. PR-126 dated 10 February 2022, “On additional measures for the improvement of the system for the preservation and study of ancient written sources”, Resolution No. PR-338 dated 29 July 2022, “On measures for the accelerated development of cooperation with Turkic states in the field of tourism” as well as other regulatory legal documents related to this sphere.

Compliance of the research with the priorities of the republic’s science and technology development. The research was carried out in accordance with Priority Area I of the development of science and technology of the republic, entitled “Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state and ways of their implementation”.

The level of study of the problem. The works of Turkish researchers who studied the history of Amir Temur’s personality and state-building activities during the period of 1923–2023 have been analyzed from various scholarly perspectives in world historiography. They were researched by being classified into three groups based on territorial and chronological principles. Specifically, the first group comprises studies produced in Western Europe and the USA; the second group consists of works created in regions neighboring Turkey; and the third group includes research generated in our country during the years of independence.

Historiographical analysis indicates that no separate research has been conducted on the study of the personality and statehood activity of Amir Temur in the historiography of the Republic of Turkey between 1923 and 2023. This demonstrates that investigating this issue is a task of significant scientific and theoretical importance (the historiography of the issue is covered in detail in the first paragraph of Chapter I).

The connection of the study with the research plans of the higher educational institution where the dissertation was completed. The dissertation was carried out in accordance with the scientific research plan of Ferghana State University within the framework of the “Roadmap” approved on the basis of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD–6097 dated October 29, 2020, “On the Approval of the Concept for the Development of Science until 2030”.

The purpose of the research is to investigate the study of the life and statehood activity of Amir Temur in the Republic of Turkey between 1923 and 2023 from a historiographical perspective.

Tasks of the research:

to scientifically analyze the factors and developmental stages that prompted the study of the life and statehood activity of Amir Temur in Turkey between 1923 and 2023;

to demonstrate the role of Turkish researchers who investigated the life and statehood activity of Amir Temur in the advancement of Timurid studies;

to investigate the emergence of Timurid studies in Turkey between 1923 and 1991;

to analyze Mustafa Kemal Atatürk's attitude toward the personality of Amir Temur and the inclusion of Amir Temur in the textbooks of the early years of the Republic of Turkey;

to analyze the coverage of the history of Amir Temur in the works of Turkish researchers between 1991 and 2000;

to shed light on the issues concerning the study of the history of the life and statehood activity of Amir Temur in research produced in Turkey between 2001 and 2023;

to draw final conclusions based on the research results and develop recommendations of scientific and practical importance.

The object of the research is defined as the investigation of the history of the life and statehood activity of Amir Temur in the Republic of Turkey between 1923 and 2023.

The subject of the research consists of the works and studies of Turkish researchers dedicated to investigating the life and statehood activity of Amir Temur in the Republic of Turkey between 1923 and 2023.

